

TUYABO'G'IZ SUV OMBORINING BAHORGI ORNITOFAUNASI TO'G'RISIDA YANGI MA'LUMOTLAR

Umarov Sanjarbek Sidiqovich

O'z R FA Zoologiya instituti stajyor tadqiqotchisi

e-mail: Sanjarbek5671@gmail.com.

Annotatsiya: 2022 yil bahor mavsumida Tuyabo'g'iz suv ombori ornitofaunasi o'rganildi. Olingan ma'lumotlar tahlil qilinganda qushlarning 14 turkum, 30 ta oilaga mansub 67 turi, umumiy hisobda 6172 ta qush qayd etildi. Tadqiqot hududida uchralgan *Phalacrocorax pygmaeus*, *Ciconia ciconia ssp. Asiatica*, *Pandion haliaetus*, *Larus ichthyaeus* O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan.

Kalit so'zlar: Tuyabo'g'iz suv ombori, ornitofauna, bahorgi mavsum, migratsiya, tur, turkum, oila, sinf, Qizil kitob.

Hozirgi vaqtda respublikamizda suniy yaratilgan suv omborlari va baliqchilikka ixtisoslashtirilgan kichik hajmdagi hovuzlar qushlarning mavsumiy migratsiyasi, dam olish va oziqlanishi, qolaversa ayrim qush turlari uchun ko'payish maskani hisoblanadi.

Tuyabo'g'iz suv ombori Toshkent shaharidan 35 km janubda 1962 yilda Ohangaron daryosining pastki oqimida qurib bitkazilgan gidrotexnika inshootidir [2,123-124]. Umumiy hajmi 250 mln.m³, suv yuzasi maydoni 20 km², maksimal chuqurligi 32 mni tashkil etadi [3]. Suv omborning sharqiy qismida taxminan 10 kv km maydonda mayda to'qayzor, qamishli hovuzlar va botqoqliklar, o'tib bo'lmaydigan chakalakzorlar bor [2,123-124].

Kuzatuvlarimiz 2022 yilning bahor mavsumida suv ombori ornitofaunasining tur tarkibi, soni va mavsumiy dinamikasining o'zgarishini o'rganish maqsadida amalga oshirildi. Tadqiqotlarimizda qushlarni kuzatish, aniqlash va suratga olish uchun Nikon Coolpix P900 hamda Kandar (12x50) durbinidan foydalanildi. Hududning ornitofaunasini o'rganishda umumiy qabul qilingan standart metodlardan foydalanildi [3,6,308-344]. Sanoq o'tkazish punktlarida kuzatish davomiyligi 10-30 daqiqani tashkil etdi.

Bahor mavsumidagi kuzatuvlarda jami 6172 ta qush hisobga olindi (1-jadval). Suv ombori va uning atrofida 14 turkum, 30 ta oilaga mansub 67 tur ro'yxatga olindi. Uchralgan turlarning asosiy qismi uchib o'tuvchi va kelib ketuvchi xususiyatga ega.

1-jadval

Tuyabo'g'iz suv ombori qushlari soni (2022 y.)

№	Qushlar nomi	Oylar			Jami	Uchrash joyi
		Mart	April	May		
Kurakoyoqlilar turkumi						
1	Katta qoravoy <i>Phalacrocorax carbo</i>	4	13	27	44	A, B, S
2	Kichik qoravoy <i>Phalacrocorax pygmaeus</i> *	20			20	A, D
Laylaksimonlar turkumi						
3	Xaqqush <i>Nycticorax nycticorax</i>		13	19	32	A, B, S
4	Katta oq qarqara <i>Casmerodius albus</i>	8	2	2	12	S, D, E
5	Kulrang qarqara <i>Ardea cinerea</i>	14	1	16	31	B, S, D
6	Jiyron qarqara <i>Ardea purpurea</i>		1	1	2	S, E
7	Turkiston oq laylagi <i>Ciconia ciconia ssp. Asiatica</i> *	10	3	6	19	A, B, S, D
G'ozsimonlar turkumi						

8	Qo'ng'ir o'rdak <i>Anas strepera</i>	3000	6	4	3010	S, D
9	Olaqanot <i>Anas penelope</i>		10		10	S
10	Churrak <i>Anas crecca</i>	1500			1500	D
11	Yovvoyi o'rdak <i>Anas platyrhynchos</i>			4	4	S
12	Suqsur <i>Anas acuta</i>		2		2	S
13	Suqsun <i>Anas clypeata</i>	20			20	D
14	Olmabosh <i>Netta rufina</i>	500			500	D
Lochinsimonlar turkumi						
15	Suvqiyg'ir <i>Pandion haliaetus</i> *		1	1	2	S
16	Qora kalxat <i>Milvus migrans</i>		4		4	S
17	Soz bo'ktargisi <i>Circus aeruginosus</i>	4	5	5	14	B, S, D
18	Toshqirg'iy <i>Accipiter badius</i>		1	6	7	A, S
19	Miqqiy <i>Falco tinnunculus</i>		1		1	D
Tustovuqsimonlar turkumi						
20	Qirgyvul <i>Phasianus colchicus</i>	1	1		2	A
Turnasimonlar turkumi						
21	Qashqaldoq <i>Fulica atra</i>	176	150		326	S
22	Suv tovug'i <i>Gallinula chloropus</i>	2	2	1	5	S
Rjankasimonlar turkumi						
23	Qiziloyoq <i>Himantopus himantopus</i>		8	5	13	E
24	Katta baliqchi <i>Tringa nebularia</i>	5	2	2	9	D, E
25	Chiyildoq baliqchi <i>Actitis hypoleucos</i>	10	6		16	S, D
26	Truxtan <i>Philomachus pugnax</i>		7		7	E
27	Jiqtoq <i>Glareola pratincola</i>		1		1	D
28	Dengiz kaptari <i>Larus genei</i>	12	54	32	98	A, S, D, E
29	Daryo chigirtchisi <i>Sterna hirundo</i>			3	3	A, B
30	Kichik chigirtchi <i>Sterna albifrons</i>	2	5	5	12	A, B, D, E
31	Ko'l baliqchisi <i>Larus ridibundus</i>	5	5		10	S, D, E
32	Qoraboshli baliqchi <i>Larus ichthyaetus</i> *	2			2	A, D
33	Loyxo'raklar <i>Scolopacidae</i>		12	5	17	S, D, E
Kaptarsimonlar turkumi						
34	Ko'k kaptar <i>Columba livia</i>	17	8	15	40	A, B, D
35	Gov kaptar <i>Columba palumbus</i>	8	10	14	32	A, E
36	Qumri <i>Streptopelia decaocto</i>	2	3	2	7	A, B
37	Musicha <i>Streptopelia senegalensis</i>	4	2	7	13	A, B
Yapaloqqushsimonlar turkumi						
38	Boyo'g'li <i>Athene noctua</i>	1	3		4	B
Uzunqanotlar turkumi						
39	Qora uzunqanot <i>Apus apus</i>	4	3	20	27	A, B, S

Ko'kqarg'asimonlar turkumi						
40	Ko'k qarg'a <i>Coracias garrulus</i>			6	6	A, B
Sasiqpopishaksimonlar turkumi						
41	Sasiqpopishak <i>Upupa epops</i>		1	1	2	A, B
Qizilishtonsimonlar						
42	Oqqanot qizilishton <i>Dendrocopos leucopterus</i>	1	2	1	4	A, B
Chumchuqsimonlar turkumi						
43	Qishloq qaldirg'ochi <i>Hirundo rustica</i>		1	17	18	A, B
44	Tuya qaldirg'och <i>Hirundo daurica</i>		4	10	14	A, B
45	Tog' jibljiboni <i>Motacilla cinerea</i>		1		1	A
46	Niqobli jibljibon <i>Motacilla personata</i>		1	1	2	A
47	Uzun dumli karqunoqm <i>Lanius schach</i>		1	1	2	E
48	Ola chug'urchuq <i>Sturnus roseus</i>		18		18	B
49	Mayna <i>Acridotheres tristis</i>		17	35	52	A, B, S
50	Zagizg'on <i>Pica pica</i>	3	1	4	8	A, B, D
51	Qora qarg'a <i>Corvus corone</i>	20	1	8	29	A, S, D
52	Ola qarg'a <i>Corvus cornix</i>	14			14	D
53	Cho'l quzg'uni <i>Corvus ruficollis</i>	7	3		10	S, E
54	Qoratamoq zavirushka <i>Prunella atrogularis</i>	4			4	S
55	Katta ko'rgalak <i>Hippolais pallida</i>		1		1	E
56	Qoraboshli sirchumchuq <i>Saxicola maurus</i>		1	1	2	E
57	O'ynoqi toshsirchumchuq <i>Oenanthe isabellina</i>		1		1	B
58	Qoratamoq qorayaloq <i>Turdus atrogularis</i>	8			8	D
59	Qora shaqshaq <i>Turdus merula</i>		1	2	3	A, D
60	Inuya Remiz <i>pendulinus</i>			1	1	S
61	Sariqto'sh chittak <i>Parus flavipectus</i>	6			6	S, E
62	Buxoro chittagi <i>Parus bokharensis</i>	9	1		10	S, D
63	Hind chumchug'i <i>Passer indicus</i>			10	10	A
64	Dala chumchug'i <i>Passer montanus</i>		6	10	16	B
65	Qizilto'sh <i>Fringilla coelebs</i>	21			21	D
66	Yurok <i>Fringilla montifringilla</i>	30			30	S, D
67	Pushti qizilbosh <i>Carpodacus grandis</i>		1		1	S

Jami:	5454	408	310	6172
-------	------	-----	-----	------

Eslatma: * - Qizil kitobga kiritilgan turlar

Izoh:

A- birinchi kuzatuv joyi (40°57'55.3"N 69°18'19.4"E)

B- ikkinchi kuzatuv joyi (40°58'03.2"N 69°22'01.1"E)

S- uchinchi kuzatuv joyi (40°56'54.6"N 69°22'10.4"E)

D- to'rtinchi kuzatuv joyi (40°56'22" N 69°21'42"E)

E- beshinchi kuzatuv joyi (40°55'49.9"N 69°21'18.0"E)

Mart oyida turlar xilma-xilligi yuqori bo'lib, ular soni bahorgi migarantlar hisobidan umumiy ustunlik (5454 ta) nomoyon qildi. Hisobga olish vaqtida qushlar soni 1-3000 taga tebranib, ko'pchilik hollarda 30 va undan kam sonda qayd etildi. Faqat g'ozsimonlar turkum vakillari qo'ng'ir o'rdak *Anas strepera* (3000), churrak *Anas crecca* (1500), olmabosh *Netta rufina* (500) va qashqaldoq *Fulica atra* (176) eng ko'p miqdorda hisobga olindi. *Anatidae* oilasi vakillari suv ombori qushlarining asosiy qismini (92%) tashkil etdi. Atrof hududdagi daraxt va butazorlarda qirg'yul *Phasianus colchicus*, boyo'g'li *Athene noctua* va oqqanot qizilishton *Dendrocopos leucopterus* kuzatildi. Martda suv havzasi va uning atrofida hammasi bo'lib 36 tur (umumiy turlarning 53.7%) ro'yxatga olindi. Aksariat turlar uchrash xususiyatiga ko'ra o'troq hayot kechiruvchi va qishlovchi qushlar guruhiga kiradi. Bu holat qishlovchi qushlarning uya qurish joylariga uchib ketishi davom etayotganligidan dalolat beradi.

Aprelda qushlar soni oldingi oyga nisbatan sezilarli ravishda kamayganligi (408 ta) kuzatildi. Qo'ng'ir o'rdak va qashqaldoqni sonining kamayganligi, ayrim suv qushlari - churrak va olmabosh uchratilmadi. Bu holat ularning migratsiyasi yakunlanganidan dalolat beradi. Mavsumning dastlabki oyida qayd etilgan suv qushlari soni va xilma-xilligi sezilarli ravishda kamaydi. Bahorgi migratsiyasi kechroq amalga oshuvchi ayrim turkumlar vakillari – haqqush *Nycticorax nycticorax*, jiyron qarqara *Ardea purpurea*, olaqanot *Anas penelope*, suqsur *Anas acuta* aprel oyi davomida qayd etildi. O'zbekiston "Qizil kitobi" ga kiritilgan suvqiyg'ir *Pandion haliaetus* ham shu oyda ro'yxatga olindi. Chumchuqsimonlar turkumidan ayrim turlarning ola chug'urchuq *Sturnus roseus*, mayna *acridotheres tristis* turlari ko'proq qayd etildi. Suv havzasi bu qushlar uchun ma'lum vaqt davomida dam olish va oziqlanish joyi bo'lib xizmat qiladi.

May oyida suv va suv oldi qushlar soni oldingi oylarga nisbatan keskin ravishda kamaydi, aksincha chumchuqsimonlar turkum vakillaridan ayrimlarini, qishloq qaldirg'ochi *Hirundo rustica*, tuya qaldirg'och *Hirundo daurica*, mayna *Acridotheres tristis*, hind chumchug'i *Passer indicus*, dala chumchug'i *Passer montanus* ning soni ortib borishi kuzatildi.

Butun mavsum davomida g'ozsimonlar turkumi dominant tur sifatida 81.76% ni tashkil etgan bo'lsa, qolgan qushlar ko'rsatkichi 5.36% dan 0.03% gacha kamayib borishi aniqlandi.

Bahor mavsumida suv ombori atrofida jami 19 ta O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan turkiston oq laylagi *Ciconia ciconia ssp. Asiatica* qayd etildi. Tuyabo'giz suv ombori yaqinida 34 juft oq laylaklar koloniyasi, [5], 50 ta uya [2,123-124], keyinchalik 60 dan ortiq aniqlangan [1,35-36]. Bundan tashqari suv havzasida muhofazaga olingan kichik qoravoy *Phalacrocorax pygmaeus*, suvqiyg'ir *Pandion haliaetus* va qoraboshli baliqchi *Larus ichthyaetus* kabi kamyob turlar uchrashi kuzatildi.

Bahor mavsumida olib borgan ornitologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, Tuyabo'giz suv ombori uchib o'tuvchi qushlar hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, sayozlashgan sharqiy qismlari suv qushlarining muhim dam olish va oziqlanish joyi bo'lib xizmat qiladi. Bu hududdagi mavjud to'qay va qamishzorlar ham qushlar hayotida muhim ahamiyatga ega.

Tuyabo'giz suv ombori 2008 yilda qushlarning qishlashi va uchib o'tishi uchun muhim joy sifatida "Muhim ornitologik hududlar" ro'yxatiga kiritilgan [2,123-124]. Bizning tadqiqotlarimiz ham ushbu hudud qushlar uchun bahorgi migratsiya va uya qurish davrida muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Атаходжаев А.А., Садыкова С.А., Рахманова Л.А., Холматова Н.А. Халқаро сув олди қушларининг қишки саноқ куни // Биология, Экология ва тупроқшуносликнинг долзарб муаммолари мавзусидаги Илмий – амалий семинар материаллари. Тошкент 2016. Б. 35 - 36.

2. «Важнейшие орнитологические территории Узбекистана»/ Ред. Р.Д. Кашкаров, Д.Р. Уэлш, М. Бромбахер при участии Е.Н. Лановенко. Ташкент: Общество охраны птиц Узбекистана, 2008. – 123-124 с.
3. Новиков, Г. А. Полевые исследования экологии наземных позвоночных животных / Г. А. Новиков. – Л.: Советская наука, 1949. – 602 с
4. Никитин А.М. Водохранилища Средней Азии. - Л.: Гидрометеиздат, 1991-53 с
5. Shernazarov E. Assessment of the current status of the White Stork *Ciconia c. asiatica* in Uzbekistan. In: White Stork populations across the world. NABU, Germany 2013
6. William J. Sutherland. Ecological Gensus Techniques (2nd ed.) A Handbook. 2006. 308-344 pages.